



## ZAMONAVIY TA'LIMDA NUTQNING AHAMIYATI

Mavlonova Marjona Usmoz qizi  
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali.  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1 - bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq texnikasi, notiqlik san'ati, nutq madaniyati haqida so'z yuritiladi hamda o'qituvchining faoliyatida nutq texnikasi qanchalik muhim o'rin tuishi haqida ma'lumot keltirib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Notiqlik san'ati, nutq odobi, nutq texnikasi, til va nutq.

### KIRISH

O'qituvchi nutq odobi, talabalarga bilim berish, ularning rivojlanishiga yordam berish va ular bilan interaktiv ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun yaratilgan. Nutq madaniyati va tarbiya insonlarning ijodiy g'oyalari rivojlantirish va ularning o'z fikrlarini ifodalash va boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini oshirish orqali insoniy munosabatlarni maqsad qiladi.

Asosiy qism: Tarixchi olimlarning ma'lumotiga ko'ra, notiqlik san'atiga eramizdan oldingi VII asrda Yunonistonda asos solingan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflarning zimmasiga yuklatilar edi. Ular notiqlik san'atining yetuk namoyandalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baland va ta'sirchan ovozlari bilan odamlar tafakkuri, ongiga kirib borganlar, tanlov va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi adabiyotlarda bayon etiladi. Notiqlik san'atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli holdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodnin tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg'in ta'sir etuvchi murakkab vosita ekanligi uchun Yunonistonda uni "San'atlar shohi" deb atashgan. O'qituvchi uchun nutq texnikasi juda zarur omil hisoblanadi [1:17] O'qituvchi nutqning ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va undagi to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga ta'sir etish uchun yo'naltrilgan bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda asosan o'qituvchining og'zaki nutqi jarayoni nazarda tutiladi va o'quvchilar tomonidan qabul qilishida paydo bo'ladigan ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi. Ya'ni notiq o'qituvchi o'quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o'z nutqning o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishini lozim. O'qituvchining pedagogic faoliyatida nutq texnikasi murakkab va doimiy munoaralarga sabab bo'lib kelayotgan jarayon psixologik til bilan aytilganda nutq texnikasi notiq nutqning o'tinli yoki o'rinsizligi belgilashda namoyon bo'ladi. O'qituvchilar har xil vaziyatlarda turli xarakterdagi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi. Demak, u o'z nutqini ana shunday vaziyatlar asosida o'quvchilar holatiga qarab tuzishi, o'zgarishi doimo



nutqning ta'sirchan chiqishiga e'tibor berishi, o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo'lmish metanimiya, metafara, kabilardan foydalanish lozim. O'quvchilar diqqatini jalb etish, o'rganilayotgan mavzuga ularni qiziqitira olish o'qituvchi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridandir. [2:48]

Xulosa, o'qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo'lishi o'quv materiallarini talabalar tomonidan puxta o'zlashtirilishning ta'minlash garovidir. Bolalar o'qituvchi nutqiga juda e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovushning noto'g'ri aytilishi kulguga sabab bo'ladi. Bir ohangdagi nutq so'zlovchini tezda charchatadi. Individual suhbat paytidagi o'quvchining baland ovozidan o'quvchi o'zini aldanayotganidek his etadi. Bu o'qituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uyg'otadi. Ayrim mutaxassislar insonning tovushi va uning tembi tug'ma xususiyat deb aytishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologik tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Shunday har bir o'quvchi o'z ustida ishlashi, o'quvchilarga ijobiy ta'sir etishni puxta egallashi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.S.Abdullayeva, A. A.Xoliqov, H.M.Sodiqov, Sh.Q.Primov, Sh.R.Zarmasov "Umumiy pedagogika" Toshkent –innovatsion ziyo, 2021
2. N.Atayeva, M.Salayeva, S.Hasanov "Umumiy pedagogika" Toshkent –Fan va texnologiya-2015